



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2022-yil
YANVAR-IYUN**

Nukus – 2022

SO‘Z BOSHI

Qoraqalpog‘iston Respublikasining statistik axborotnomasi – Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari hamda shahar va tumanlar holatini kompleks tavsiflovchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2022-yilning yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Uchbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa ham jamiyatning Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagich (IFUT–2) buyicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘ –kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l.	–	litr
%.	–	foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSh doll.	–	million AQSh dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	1), 2), 3)	–	izohning mavjudligi
m.	–	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH	7-14
II. SANOAT	15-28
III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI	29-48
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	49-68
V. XIZMATLAR	69-83
VI. TRANSPORT	84-93
VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI	94-100
VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	101-107
IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	108-116
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	117-123
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA’RIFI	124-140
XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI	141-148
XIII. DEMOGRAFIYA	149-158

**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
yanvar-iyun oylarida**


	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2021-yil yanvar-iyuniga nisbatan, foiz hisobida</i>
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>	
Yalpi hududiy mahsulot	11 352,0	13 051,2	103,5
Sanoat mahsuloti	8 157,0	8 864,8	100,5
Iste'mol tovarlari	1 276,7	1 425,1	111,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 307,7	3 727,7	103,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	3 064,5	4 175,9	123,2
Qurilish ishlari	2 161,5	2 546,0	105,6
Yuk aylanmasi (<i>mln. tn-km</i>)	398,6	413,0	103,6
Yo'lovchi aylanmasi (<i>mln. yo'lovchi-km</i>)	1858,5	1932,6	104,0
Chakana tovar aylanmasi	3 676,5	4 439,7	107,8
Xizmatlar, jami	3830,4	4 715,1	116,2
Tashqi savdo aylanmasi (<i>mln. AQSh doll.</i>)	332,3	303,6	91,4
Eksport	220,7	188,8	85,5
Import	111,6	114,8	102,9
Saldo (+;-)	109,1	74,0	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-iyunida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 13 051,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-iyun bilan taqqoslaganda 3,5 % ga o‘tdi.

YAHM deflyator indeksi 2021-yilning yanvar-iyundagi narxlarga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qo‘shgan hissasi 3,3 % ga yetdi.




2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari

	<i>Mrd. so‘m</i>		<i>O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	11 352,0	13 051,2	103,5
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	10 283,3	11 756,8	103,5
mahsulotlarga sof soliqlar	1 068,7	1 294,4	103,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	10 283,3	11 756,8	103,5
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 896,6	2 137,0	103,2
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	4 173,5	4 604,8	101,7
sanoat	3 232,1	3 488,0	100,5
qurilish	941,4	1 116,8	105,6
xizmatlar	4 213,2	5 015,0	105,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	579,0	670,3	103,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	666,7	856,1	125,1
boshqa xizmat tarmoqlari	2 967,5	3 488,6	101,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 674,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur‘atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 18,2 % ni, sanoat tarmog‘i 29,7 % ni, qurilish 9,5 % ni va xizmatlar sohasi 42,6 % ni tashkil qildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	90,6	90,1
mahsulotlarga sof soliqlar	9,4	9,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	18,4	18,2
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	40,6	39,2
sanoat	31,4	29,7
qurilish	9,2	9,5
xizmatlar	41,0	42,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5,6	5,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,5	7,3
boshqa xizmat tarmoqlari	28,9	29,6

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo‘shilgan qiymati

● Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,2 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 18,2 %), sanoatda – 100,5 % (29,7 %), qurilishda – 105,6 % (9,5 %), xizmatlar sohasida – 105,5 % ni (42,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 103,2 % (5,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 125,1 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,5 % dan (29,6 %) iborat bo‘ldi.

2021-2022-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutloq o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,5 f.p. (2021-yilning yanvar-iyunida salbiy 0,01 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,1 f.p. (2021-yilning yanvar-iyunida – 4,7 f.p.) va qurilish tarmog‘i – 0,5 f.p. (2021-yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), xizmat ko‘rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2021-yilning yanvar-iyunida – 3,3 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021-yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.)ga ko‘paydi.

2022-yilning yanvar-iyunida YAHM o‘shishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022-yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021-yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari xizmatlar sohasida – 112,8 % va qurilishda – 112,3 % qayd etildi.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



2021-2022 yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi *(jamiga nisbatan %da)*

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 49,7 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 49,7 %).


Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish yoki pasayish kuzatilmadi.



Yalpi hududiy mahsulot

II. SANOAT

Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi
(2022 yil yanvar-iyun)



2022 yilning yanvar-iyun oylarida 8 864,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarin qayta ishlaydigan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,0 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1011,8 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 11,4 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 87,8 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 622,5 mlrd. so‘m miqdorida (7,0 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 7 624,9 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 86,0 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 1 113,8 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 12,6 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 61,2 mlrd. so‘m (0,7 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 64,9 mlrd. so‘m (0,7 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o‘shishiga elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo‘shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 12,6 foizni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘ati



2022 yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m		fizik hajm indeksi, %	jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida	
	2021 y.	2022 y.		2021 y.	2022 y.

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

8 297,4 8 864,8 100,5 100,0 100,0

iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

41,2 64,9 81,2 0,5 0,7

ulardan:

Tog‘-kon sanoatining boshqa sohalari

38,8 58,9 41,1 0,47 0,6

Yopiq usulda qazishga texnik yordam ko‘rsatish

2,4 6,0 198,3 0,03 0,1

Qayta ishlash sanoati

7 128,1 7 624,9 100,4 85,9 86,0

undan:

Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish

989,4 1 114,9 104,3 11,9 12,6

To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish

926,3 1 319,5 104,6 11,2 14,9

Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohlol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish

58,7 67,9 117,2 0,7 0,8

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2,4 6,8 384,0 0,03 0,07

davomi


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>		<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	4 740,0	4739,6	99,0	57,1	53,5
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	2,6	17,8	525,0	0,03	0,2
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	16,9	16,5	77,9	0,2	0,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	192,4	259,7	121,4	2,3	2,9
Metallurgiya sanoati	2,1	1,1	46,2	0,03	0,01
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	26,4	33,4	107,4	0,32	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	101,3	0	0,0	1,2	0,0
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	40,9	0,3	0,7	0,5	0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	0,6	0,5	79,0	0,01	0,01
Mashina va uskunalari ta'mirlash va o'rnatish	6,0	5,2	415,9	0,08	0,05
boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	22,1	41,7	166,2	0,3	0,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1 082,9	1 113,8	102,2	13,1	12,6
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	45,2	61,2	104,6	0,5	0,7

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 foizini tashkil etdi.


Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha Tabiiy gaz olish hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 30,7 foizga, gaz kondensati 19,6 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)

2021 yil yanvar-iyun



2022 yil yanvar-iyun



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo‘yicha)

	o‘lchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2021 yilga nisbatan, % hisobida
		2021 y.	2022 y.	

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz ishlab chiqarish	mln.m.kub	1028,5	712,6	69,3
Ohak tosh	ming tn.	88,2	123,1	139,6
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	-	-	-

davomi

	o‘lchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2021 yilga nisbatan %, hisobida
		2021 y.	2022 y.	
Qayta ishlash sanoati				
Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirt</i>	1881,1	1755,5	93,3
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	63,1	63,2	100,1
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tn.</i>	34,3	15,6	45,5
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 g. (buxanka)	<i>tn</i>	144,6	108,6	75,1
Guruch mahsulotlari	<i>tn</i>	1517,8	1827,4	120,4
Tozalangan paxta yog‘i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	3854,7	1861,4	48,3
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	<i>ming tn.</i>	23,7	23,8	100,2
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	15,0	19,4	129,0
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	23,8	27,7	116,2
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	1272,4	1401,5	110,1
Asosiy noorganik kimyoviy moddalar (dinatriy karbonati)	<i>ming tn.</i>	92,4	102,2	110,5
Polietilen	<i>ming tn.</i>	173,1	150,2	86,8
Polipropilen	<i>ming tn.</i>	48,1	42,3	87,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash				
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	2454,5	2797,0	114,0
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	36,7	28,5	77,8

davomi

	o‘lchov birligi	yanvar-iyun oylarida		2021 yilga nisbatan, % hisobida
		2021 y.	2022 y.	


Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlari	mln. so‘m	29054,1	30752,6	105,8
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mln. so‘m	3550,9	4198,8	118,2

2022 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 624,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 86,0 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali 61,7 foizni, o‘rta-quyi texnologiyali 4,6 foiz va quyi texnologiyali 33,5 foizni tashkil etdi.

2022 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan guruch 20,0 foizga, porlandtsement 17,7 foizga oshgan bo‘lsa, makaron mahsulotini ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 54,5 foizga, tozalangan paxta yog‘i 51,7 foizga, bug‘doy noni 24,9 foizga, polietilen 13,2 foizga, polipropilen 12,1 foizga, aroq 6,7 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 113,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 5,8 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 18,2 foizga oshganligi kuzatildi.


Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

2022 yilning yanvar-iyun oylarida 1 425,1 mlrd. so‘mlik iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. Jumladan, 797,3 mlrd.so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (116,0 foiz), 99,1 mlrd.so‘mlik vino-arog mahsulotlari (91,6 foiz) va 528,6 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 109,8 foiz) ishlab chiqarildi.


Yanvar-iyun oylarida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.</i>
Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish	1 229,5	1 425,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
oziq-ovqat tovarlari	751,2	896,5	61,1	62,9
nooziq-ovqat tovarlari	478,3	528,6	38,9	37,1

**2022 yilning yanvar-iyun oylarida iste‘mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**



**Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste‘mol tovarlari
ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida**




Shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari (jamiga nisbatan ulishi)

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Nukus shahri (jami ishlab chiqarish hajmining 55,6%), Taxiatosh (13,1%), Qo‘ng‘irot (4,1 %), To‘rtko‘l (3,9 %), Beruniy (3,4 %), Amudaryo (3,4 %), Ellikqal‘a (2,7%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, iste‘mol tovarlari hajmining eng katta qismi Nukus shahri (jami iste‘mol tovarlari hajmining 18,3 %), Taxiatosh (12,9 %), Ellikqal‘a (11,7 %), To‘rtko‘l (8,6 %), Beruniy va Xo‘jayli (7,1 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (respublika bo‘yicha jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida)




2022 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari va iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>iste‘mol tovarlari, mlrd. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8864,8	100,0	1425,1	100,0
Nukus sh.	4925,1	55,6	260,4	18,3
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	299,4	3,4	85,9	6,0
Beruniy	298,1	3,4	101,4	7,1
Bo‘zatov	11,0	0,1	7,7	0,5
Qonliqo‘l	190,1	2,1	15,3	1,1
Qorao‘zak	183,8	2,1	37,2	2,6
Kegeyli	89,1	1,0	23,9	1,7
Qo‘ng‘irot	362,8	4,1	69,6	4,9
Mo‘ynoq	87,1	1,0	20,9	1,5
Nukus	140,8	1,6	27,5	1,9
Taxiatosh	1160,6	13,1	184,4	12,9
Taxtako‘pir	176,9	2,0	57,8	4,1
To‘rtko‘l	348,2	3,9	122,4	8,6
Xo‘jayli	124,4	1,4	101,2	7,1
Chimboy	138,5	1,6	91,6	6,4
Shumanay	87,9	1,0	51,7	3,6
Ellikqal‘a	241,0	2,7	166,2	11,7

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so'm</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>iste'mol tovarlari</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4533,4	728,8
Nukus sh.	14898,4	787,5
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1456,7	418,0
Beruniy	1504,2	511,7
Bo'zatov	504,9	353,5
Qonliko'l	3616,8	290,8
Qorao'zak	3421,0	693,2
Kegeyli	1207,9	324,5
Qo'ng'iro't	2723,2	522,7
Mo'ynoq	2627,3	628,4
Nukus	2700,7	527,2
Taxiatosh	15330,8	2436,0
Taxtako'pir	4348,8	1421,7
To'rtko'l	1569,8	551,6
Xo'jayli	987,0	803,1
Chimboy	1212,6	801,9
Shumanay	1539,5	904,3
Ellikqal'a	1458,7	1006,1

2022 yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari, ming so'mda



2022 yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish

Tarmoqlar aro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2022 yilning yanvar-iyun oylarida 280,5 mlrd. so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2021 yil yanvar-iyun	2022 yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	42	43
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	36	24
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd.so'm</i>	243,9	280,5
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	6,3	3,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	152	85

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5131,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo'shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 57,9 foizni tashkil etdi.

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2022 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 3727,7 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 3451,6 mlrd. so‘mni (103,4 %), o‘rmon xo‘jaligi 193,1 mlrd. so‘mni (102,2 %), baliqchilik xo‘jaligi 83,0 mlrd. so‘mni (100,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ulushi 2,8 % ni tashkil qildi.



3 727,7
mlrd. so'm



01

3451,6

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



02

193,1

O‘rmon xo‘jaligi




03


83,0

Baliqchilik xo‘jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati



Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m



2022 yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (619,2 mlrd. so‘m) va To‘rtko‘l (472,0 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo‘ynoq (46,2 mlrd. so‘m) tumani va Nukus shahar (22,0 mlrd. so‘m)larni keltirib o‘tish mumkin.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

Hosil yig‘imi. 2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 115,0 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari barcha toifadagi xo‘jaliklarda 27,6 ming tonna kartoshka, (2021 yilga nisbatan 2,7 foizga ko‘p), 48,1 ming tonna sabzavot (3,5 foizga ko‘p) yig‘ib olindi, 6,8 ming tonna poliz ekinlari (3,6 foizga ko‘p), 10,4 ming tonna meva va rezavorlar (3,2 foizga ko‘p) va 0,3 ming tonna uzum (14,8 foizga ko‘p) yetishtirildi.

**2022 yilning yanvar-iyunida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Ferma xo‘jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda	tonna	o‘shish sur‘ati, foizda
Jami don	91 147,0	109,4	19 569,0	99,2	4 334,0	160,6
Kartoshka	6 632,0	107,9	20 795,0	101,1	202,0	105,8
Sabzavotlar	12 499,0	103,8	32 729,0	102,3	2 896,0	117,3
Poliz	3 163,0	103,9	3 555,0	102,9	95,0	123,4
Mevalar va rezavorlar	3 322,0	102,7	6 681,0	103,5	429,0	101,7
Uzum	110,0	102,6	160,0	105,3	46,0	287,5




Dehqonchilik

2022 yilning yanvar–iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1152,0 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 33,6 % ni tashkil qildi.


Donli ekinlar

Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %




● Fermer xo‘jaliklari

Hajmi, ming tonna




● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

O‘sish sur‘ati, % da




● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvch tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna.




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 48,1 ming tonna sabzavotlar (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi)**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, %
da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 27,6 ming tonna kartoshka (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 75,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tonna



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 6,8 ming tonna poliz (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 52,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna




Mevalar va rezavorlar


Hajmi, ming tonna



O‘sinh sur‘ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 10,4 ming tonna mevalar va rezavorlar (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 64,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




*Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi*

Uzum


Hajmi, tonna



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi)
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 316 tonna uzum (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 14,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 50,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna






Chorvachilik

2022 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2277,0 mlrd. so‘mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 66,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,4 ming tonna go‘sh (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,0 % ga ko‘p), 135,5 ming tonna sut (2,5 % ga ko‘p), 179,6 mln. dona tuxum (3,3 % ga ko‘p) va 3650,8 tonna baliq (0,1 % ga ko‘p) ovlandi.




Go‘sh t (tirik vaznda)


Hajmi, ming tonna



O‘shish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 41,4 ming tonna go‘sh t (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sh t ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sh t ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha go‘sh t (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 135,5 ming tonna sut (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O‘shish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 179,6 mln.dona tuxum (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 85,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.


- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O‘sish sur‘ati, % da




Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi




2022 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3650,8 tonna (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 0,1 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 43,3 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.

- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ovlangan
baliq hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 13,0 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 25,6 % i fermer xo‘jaliklariga, 71,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 7,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2022 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1169,1 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2021 yilning 1 iyul ig'a nisbatan 31,8 ming boshga (2,8 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.


● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, bosh




Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- sigirlarning umumiy bosh soni 340,2 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2021 yilning 1 iyul ig a nisbatan 9,4 ming boshga (2,8 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh sonining 91,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● ishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha sigirlarning bosh soni, bosh




Qo‘y va eshkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- qo‘y va eshkilarning umumiy bosh soni 1193,2 ming boshga yetdi.
- qo‘y va eshkilarning bosh soni 2021 yilning 1 iyul iga nisbatan 29,7 ming boshga (2,6 %) ko‘paydi.
- qo‘y va eshkilar bosh sonining 84,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

● Fermer xo‘jaliklari



● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha qo‘y va eshkilarning bosh soni, bosh



Otlar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 27007 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2021 yilning 1 iyul ig a nisbatan 559 boshga (2,1 %) ko‘paydi.
- otlar bosh sonining 71,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.


- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha otlarning bosh soni, bosh




Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2022 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 4866,9 ming boshga yetdi.

- parrandalar bosh soni 2021 yilning 1 iyuliga nisbatan 163,1 ming boshga (3,5 %) ko‘paydi.

- parrandalar bosh sonining 84,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha parrandalarning bosh soni, bosh





IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2022 yilning yanvar-iyun oylarida Respublikaning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 4 175,9 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 123,2 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 1363,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	4175,9	123,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	985,8	126,5	23,6
budget mablag‘lari	439,4	117,8	10,5
Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	46,1	2,4 m.	1,1
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	90,8	81,1	2,2
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	409,5	149,2	9,8
Markazlashmagan investitsiyalar:	3190,1	122,2	76,4
korxonalarining o‘z mablag‘lari	1285,4	118,2	30,8
aholi mablag‘lari	628,3	123,8	15,1
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	953,6	124,9	22,8
tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari	322,8	127,5	7,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar





2022 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
Jami, mlrd. so‘m	4175,9	886,4	3289,5
<i>shu jumladan:</i>			
qurilish-montaj ishlari	2410,2	805,3	1604,9
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	1498,4	30,9	1467,5
Boshqa harajatlar	267,3	50,2	217,1

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlarining ulushi 3,2 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati ulushi 4,2 % li punktga ko‘payganligi va boshqa harajatlarning ulushi 1,0 % li punktga kamayganligini ko‘rsatmoqda.

2022-yilning yanvar-iyun oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 985,8 mlrd. so‘mlik investitsiya mablag‘lari kiritilib, bu ko‘rsatkich jami investitsiyalarning 23,6 % ni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish surati 126,5 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3190,1 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 76,4 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 122,2 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobiga 1285,4 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 30,8 % o‘zlashtirildi. Aholining mablag‘lari hisobidan 628,3 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 15,1 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 409,5 mlrd. so‘mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 149,2 % ga oshgan yoki jami investitsiyalarning ulushi 9,8 % ni tashkil etgan.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 322,8 mlrd. so‘mlik mablag‘lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 7,7 %), bu o‘shish sur‘ati 127,5 % ni tashkil etdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 953,6 mlrd. so‘m (ulushi 22,8 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 124,9 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan 90,8 mlrd. so‘m (ulushi 2,2 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 81,1 % ni tashkil etdi, Respublika budjeti 439,4 mlrd. so‘m (ulushi 10,5 %) ushish sur‘ati 117,8 %. Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 46,1 mlrd. so‘m, (ulushi 1,1 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar



Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishlash sanoatiga 651,0 mlrd. so‘m (15,6 %), shundan boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga 262,7 mlrd.so‘m (6,3 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishga 178,9 mlrd.so‘m (4,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga 38,2 mlrd.so‘m (0,9 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 34,1 mlrd.so‘m (0,8 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 602,5 (14,4 %) mlrd. so‘m, shundan tabiiy gazni qazib olishga 571,7 mlrd, so‘m (13,7 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyat turiga 478,1 (11,5 %) mlrd. so‘m, elektr energiyasi va gaz ta‘minotiga 117,3 mlrd.so‘m (2,8 %), suv ta‘minoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 108,4 mlrd. so‘m (2,6 %), qurilishda 312,3 mlrd.so‘m (7,5 %), tashish va saqlashga 592,6 mlrd. so‘m (14,2 %), ulgurji va chakana savdoga 98,1 mlrd. so‘m (2,3 %),

axborot va aloqa 31,1 mlrd. so‘m (0,7 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 74,5 mlrd. so‘m (1,8 %), ta‘limga 205,7 mlrd. so‘m (4,9 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 111,2 mlrd. so‘m (2,7 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 25,8 mlrd. so‘m (0,6 %), moliya va sug‘urta faoliyatiga 10,7 mlrd. so‘m (0,3 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kursatishga 106,2 mlrd. so‘m (2,5 %), san‘at ko‘ngil ochish va dam olishga 23,0 mlrd. so‘m (0,6 %), turar-joy qurilishiga 580,7 mlrd. so‘m (13,9 %) va boshqa faoliyat turlariga 19,8 mlrd. so‘m (0,4 %) to‘g‘ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar
(umumiy hajmga nisbatan % da)



2022 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi



**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 30,8 % korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirildi, shu bilan birga, To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 22,8 %, Aholi mablag‘lari hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 15,1 % ni tashkil etadi.

2022 yilning yanvar-iyun oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, %</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, %</i>
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	4175,9	123,2	100,0
Respublika budjeti	439,4	117,8	10,5
Suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	46,1	2,4 m.	1,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	90,8	81,1	2,2
O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	409,5	149,2	9,8
Korxonalar mablag‘lari	1285,4	118,2	30,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	322,8	127,5	7,7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	953,6	124,9	22,8
Aholi mablag‘lari	628,3	123,8	15,1

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o‘shish sur‘atlari suv ta‘minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 46,1 mlrd. sum bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 2,4 martani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m

	<i>2021 y. yanvar-iyun</i>	<i>2022 y. yanvar-iyun</i>	<i>o‘tgan yilning mos davriga o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>jami investitsiyalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSh doll.</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3064,5	4175,9	123,2	12752,2
Nukus sh.	792,4	989,2	112,8	-
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	164,4	248,6	136,8	-
Beruniy	135,8	266,6	157,5	-
Bo‘zatov	31,8	44,3	125,3	-
Qonliko‘l	67,7	86,6	115,7	83,0
Qorao‘zak	90,1	509,6	5,1 m.	2188,0
Kegeyli	48,8	72,7	134,5	1122,1
Qo‘ng‘irot	296,4	530,9	161,6	7356,0
Mo‘ynoq	568,1	519,7	82,6	1335,0
Nukus	73,2	111,0	138,6	-
Taxiatosh	85,5	99,9	105,8	-
Taxtako‘pir	32,2	37,8	103,7	-
To‘rtko‘l	294,5	253,2	77,9	170,0
Xo‘jayli	92,6	103,0	100,9	-
Chimboy	74,7	118,1	143,6	498,1
Shumanay	32,5	38,9	107,0	-
Ellikqal‘a	165,8	145,8	79,3	-

Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar
(2022 yil yanvar-iyun oylarida)

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
